

DAVLAT XIZMATI SOHASIDA GENDER TENGLIKNI RIVOJLANTIRISH

Qurbonboyeva Xumora Jasur qizi

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

Ekologiya va huquq fakulteti talabasi

+998-94-056-35-65 xumora04.05@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10910951>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida erkaklar va ayollarning huquqlari, erkinliklari va imkoniyatlari teng bo‘lishi va gender tenglik rivojlangan mamlakatlar singari yuqori darajaga olib chiqilishi hamda ko‘plab sohalarda, misol uchun, davlat xizmatlari, saylov tizimi, ta‘lim, madaniyat, ijtimoiy sohalarda ayollarning o‘rnini va imkoniyatlarini yanada oshirish borasida amalga oshirish kerak bo‘lgan chora-tadbirlar haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: gender tenglik, saylov huquqi, gender statistika, siyosat, xalqaro normalar, xalqaro huquq, kam ta‘minlangan ayol-qizlar, matriarxat.

Аннотация: В данной статье права, свободы и возможности мужчин и женщин равны в Республике Узбекистан, а гендерное равенство выведено на более высокий уровень, чем в развитых странах, причем во многих сферах, например, государственных услуг, избирательной система, образование, культура, описаны меры, которые необходимо реализовать для дальнейшего повышения положения и возможностей женщин в социальной сфере.

Ключевые слова: гендерное равенство, избирательное право, гендерная статистика, политика, международные нормы, международное право, малообеспеченные женщины и девушки, матриархат.

Annotation: In this article, the rights, freedoms, and opportunities of men and women are equal in the Republic of Uzbekistan, and gender equality is brought to a higher level than in developed countries, and in many areas, for example, public services, electoral system, education, culture, measures be implemented to further increase the position and opportunities of women in social spheres are described.

Keywords: gender equality; suffrage; gender statistics; politics; international norms; international law; underprivileged women and girls; matriarchy.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda gender siyosatiga yanada e‘tibor kuchaytirilmoqda. Avvalambor, gender tushunchasiga ta‘rif beradigan bo‘lsak, **gender** - xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta‘lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihat. Tarixga nazar tashlasak, ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ishtiroki deyarli bo‘lmagan, ularga past nazar bilan qarashgan. Mustaqillikka erishgach, ko‘plab davlatlar bu sohaga sekin astalik bilan e‘tibor qarata boshladi. 1948-yil 10-dekabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217A ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan **“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 1-moddasida:** “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato

qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak" ¹, - deya ta'rif berilgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu boraga ko'p e'tibor qaratmoqda va bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilmoqda. **2019-yil 7-martda qabul qilingan** "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori jamiyatda ayol va qizlarning o'rnini oshirishga va ularni har bir sohada o'zlarini rivojlantirishga qaratilganligining yaqqol isbotidir. Hozirgi kunda jinoyat yetarlicha, achinarlisi ayollarga nisbatan zo'ravonlik, tazyiq qilish, kamsitish, ruhiy va jismoniy shikast yetkazish kabilar eng dolzarbdir. Albatta, jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida ham ko'rinarli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Vazirlar Mahkamasi tomonidan " Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorlarning qabul qilinishi va Xotin-qizlarning jamiyatdagi ro'lini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha **respublika komissiyasi**, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari **qo'mitasi** tashkil etilganligi ham gender tenglik masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Konstitutsiyamizning 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi". ³ Har bir davlat organida ishlashda erkaklar va ayollar teng huquqqa egadirlar. Shunga qaramay, aksariyat hollarda, davlat tashkilotlarida, korxonalarida, rahbarlik lavozimlarida ayollarning ishlashi kam kuzatiladi. Misol uchun: Parlament quyi palatasida **48 nafar ayol (32 %) deputat** bo'lsa, yuqori palatasida **24 ayol (24 %) senatorlar** ishlab kelmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga yangi saylangan deputatlarning **247 nafari (30 %)**, tuman va shahar kengashlarida – **1 422 nafari (25 %)** ayollar faoliyat yuritib kelmoqda. **Sh.Mirziyoyev** raisligida 2022-yil 2-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlat idoralarida ishlayotgan rahbar ayollar ulushi **10 foizdan oshmayotganligi** ta'kidlangan. Xalqimizda shakllangan noto'g'ri tushunchalarning o'rnini ijobiy tushunchalarga almashtirish vaqti yetib keldi. Xalq orasida ayollarga nisbatan faqatgina oiladagi bolalarning tarbiyasi bilan shug'ullanish, rahbarlik ayollarga mos bo'lmagan tushuncha deb qarash, matriarxat tizimga o'tib qolish ehtimoli bor deb qarash kabi fikrlarni bartaraf etish joiz. **2019- yil holatiga ko'ra, O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi 189 ta davlatlarning orasida 62-o'rinni egallagan.**²

Boshqa davlatlarning tajribasiga qaraydigan bo'lsak, bugungi kunga kelib Ispaniya, Finlandiya va Fransiya kabi davlatlar boshqaruv lavozimlarida ayollarning ulushi 50 % ni tashkil etmoqda. Avstriya va Belgiyada ham hukumat tarkibidagi ayollarning soni 2017-yildan beri sezilarli oshgan, ushbu ko'rsatkich **29 %** dan ko'proqni qayd etib kelmoqda. **Norvegiyada** 1978-yilda Parlament "Gender tengligi to'g'risida" gi qonunni qabul qildi va ushbu qonunga 2016-yilda rahbarlik va boshqaruv lavozimlarida ayollar sonini ko'paytirishga oid bir qator o'zgartirishlar kiritilgan. Xususan, ayollar va erkaklarga ta'lim olishda, ishga joylashishda, madaniy va kasbiy yuksalish (meritokratiya)da teng imkoniyatlar berilgan. Barcha davlat

qo'mitalari, kengashlari va boshqa davlat organlarida har bir jinsdagi a'zolarining kamida 40 foizi bo'lish talabi belgilab qo'yilgan. Bugungi kunda hukumatning **18 nafaridan 7 nafari (39 %) ayollar** tashkil etadi. Hukumat "Konservativ" va "Taraqqiyot" partiyalaridan ("Xristian demokrat" va "So'l" partiyalari ko'magida) tashkil topgan bo'lib, uchtasini ayollar boshqaradi.

O'zbekistonda rahbarlik lavozimlarida ayollarga berilgan ishonchning isboti sifatida **2021-yil 24-oktabrda** O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga bo'lib o'tgan saylovni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bo'lib o'tgan saylovda 5ta partiya o'z vakillarini nomzod sifatida taqdim etdi, unda Xalq demokratik partiyasidan Maqsuda Vorisova O'zbekiston saylov tarixida **ilk marotaba** ayol nomzod sifatida taqdim etildi. Saylov natijalariga ko'ra, nomzod **97 552 ta ovoz bilan 2-o'rinni** egalladi ⁴. Bu kutilganidan ko'ra yaxshi natija deb qayd etildi. Shu kabi ko'plab oliy lavozimlarda va organlarda ayollarning faoliyatini ko'paytirish bizga gender tenglikni rivojlantirishga hamda rivojlangan mamlakatlarda bo'lganidek ayollarning jamiyatda mavqeini kuchaytirishga yordam beradi. Davlat organlarida xotin-qizlarning ish yuritishlarini ko'paytirishda qabul qilingan qonunlarning amalda samarali ishlashi, har bir tashkilot va korxonalarni ayol xodimlarni ish bilan ta'minlaganlik uchun rag'bat berilishi hamda ish beruvchining zimmasiga korxonada 40% dan kam bo'lmagan holda ayollarning ishlashini ta'minlash vazifasi yuklatilishi kerak. Shu qatorda mamlakatdagi har bir xususiy va davlat tashkilotlari ro'yhatga olingan holda, ularning reytinglari ishlab chiqilishi va har bir tashkilotda **40% dan** kam xotin-qizlarning faoliyati aniqlansa, reytingning quyi qismidan joy olishi, shu bilan birga korxonaning ish beruvchisi bilan aloqa o'rnatgan holda reytingni ko'tarish maqsadida, tegishli idoralar tomonidan chora tadbirlar ko'rilishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Gender tenglik bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarda dolzarb va muhim masala sifatida qayd etib kelinayotganligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bu borada amalga oshirilayotgan va amalga oshirilishi kutilayotgan vazifalar yaqin va yorqin kelajakni ko'zlab, vijdonan ado etilsagina, o'zining samarasini berishiga ishonch hosil bo'ladi. Davlatimizda gender siyosatining muhim strategik maqsadi millat oilasida xotin-qizlarning o'rni, ularning moliyaviy ahvolini va ijtimoiy farovonligini yaxshilashga qaratilgan. Bunday strategiyani quyidagilarda ko'rish mumkin: ko'p bolali, yosh, kam ta'minlangan oilalar uchun ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashni o'z ichiga olayotganligi; sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida yagona ijtimoiy standartlar ishlab chiqilayotganligi; oiladagi zo'ravonlikni bartaraf etish, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratish muammolari kabilarga e'tibor qaratilmoqda. Gender tenglikka erishish nafaqat demokratik tamoyillardan biri, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Dunyo tajribasi shundan dalolat beradiki, aynan erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyat va sharoitlar mavjud davlatlarda aholining yashash tarzi va ijtimoiy-siyosiy faolligi yuqori darajada bo'lib, barcha islohotlar muvaffaqiyati ta'minlanadi. Buni amalga oshirish nafaqat O'zbekiston qonunchiligiga balki, Butun Jahon norma va qadriyatlariga nisbatan ularning ijrosini ta'minlashga qaratilgan harakatlardan biri bo'ladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston". Toshkent. 2023 (36-bet)
2. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

3. <https://adliya.uz/uzb>
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_prezidentlik_saylovi_\(2021\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_prezidentlik_saylovi_(2021))
5. <https://lex.uz/docs/-4494849>
6. <https://cyberleninka.ru/>



INNOVATIVE
ACADEMY